



O‘ZBEK TILIDA TASVIRIY VOSITALARNING XUSUSIYATLARI

Sulaymonova Mahfuza Shavkat qizi

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti I bosqich doktoranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi tasviriy vositalarning xususiyatlari, xususan, metafora, o‘xshatish, sifatlash, mubolag‘a va litota kabi ifoda usullari tahlil qilingan. Tasviriy vositalarning lingvistik tuzilishi, ularning poetik nutqda tutgan o‘rni va funksional xususiyatlari ilmiy yondashuvlar asosida sharhlangan. O‘xshatish va metaforaning farqli jihatlari, ularning komponentlari hamda badiiy adabiyotdagi roli misollar orqali yoritilgan. Ushbu maqola adabiy tahlil, lingvistik tadqiqot va stilistika bilan shug‘ullanuvchilar uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tili, tasviriy vositalar, metafora, o‘xshatish, sifatlash, mubolag‘a, litota, poetik nutq, badiiy tasvir, stilistika, emotsional-ekspressivlik.

Annotation. This article analyzes the characteristics of figurative devices in the Uzbek language, particularly metaphors, similes, epithets, hyperbole, and litotes. The linguistic structure of these devices, their role in poetic speech, and their functional features are examined based on scientific approaches. The differences between similes and metaphors, their components, and their role in literary texts are illustrated with examples. This article serves as a valuable resource for those engaged in literary analysis, linguistic research, and stylistics.

Keywords: *uzbek language, figurative devices, metaphor, simile, epithet, hyperbole, litotes, poetic speech, literary imagery, stylistics, emotional-expressive language.*

Аннотация. В данной статье анализируются особенности изобразительных средств в узбекском языке, в частности метафоры, сравнения, эпитеты, гипербола и литота. Рассматриваются их лингвистическая структура, роль в поэтической речи и функциональные особенности на основе научных подходов. Выявлены различия между сравнением и метафорой, их компоненты, а также роль в художественной литературе, что подтверждается примерами. Данная статья является ценным источником для специалистов, занимающихся литературным анализом, лингвистическими исследованиями и стилистикой.

Ключевые слова: *узбекский язык, изобразительные средства, метафора, сравнение, эпитет, гипербола, литота, поэтическая речь, художественный образ, стилстика, эмоционально-экспрессивный язык.*

O‘zbek tilida tasviriy vositalar-metafora, o‘xshatish, sifatlash, mubolag‘a, kichraytirish (litota) ko‘pincha ko‘chma ma’noda qo‘llaniladi. Bu tasviriy vositalarda predmet yoki hodisa ma’lum bir belgi asosida bir-biriga qiyoslanadi. Tasviriy vositalar har birining o‘ziga xos xususiyati bilan bir-biridan farq qiladi. Masalan: **o‘xshatishda** qiyoslanayotgan narsa va hodisalar leksik birliklar bilan ifodalanib, so‘zlar to‘g‘ri ma’noda qo‘llaniladi. O‘xshatishda leksik birliklar bilan qiyoslanayotgan narsa va hodisalarning belgilari muhim rol o‘ynaydi. O‘xshatishda uch asos e’tiborga olinadi. Bular o‘xshatilayotgan predmet, o‘xshovchi obraz, o‘xshatma belgi. O‘xshatishning o‘xshatiluvchi obyekt bilan o‘xshovchi obrazi uning asosiy sharti hisoblanadi.

Biz o‘rganadigan o‘xshatish komponentidagi o‘xshatiluvchi obyekt, o‘xshovchi obraz va o‘xshatma belgi terminlarini B.V.Tomashevskiy predmet, obraz, belgi²¹⁴; A.I.Efimov o‘xshatish subyekti, o‘xshatish obyekt, qiyoslash asosi²¹⁵; M.I.Sharipo o‘xshatish obyekt o‘xshatish obrazi, o‘xshatish belgisi²¹⁶; A. Sa’diy o‘xshatilgan, unga o‘xshatilgan, o‘xshash sifat²¹⁷ kabi terminlar bilan nomalshgan. O‘xshatish komponentidagi “o‘xshatma belgi”ning leksik birliklar bilan ifodalanishi yoki ifodalanmasligiga qarab, ularni to‘liq va to‘liqsiz o‘xshatishlarga ajratish mumkin. Uchala komponent ham leksik birliklar bilan ifodalanagan bo‘lsa, to‘liq o‘xshatish deyiladi. To‘liqsiz o‘xshatishda esa o‘xshatma belgi leksik birliklar bilan ifodalanmaydi. Buni biz uch komponentli va ikki komponentli o‘xshatish desak bo‘ladi. Masalan:

a) uch komponentli o‘xshatish: Nizomjon nima deyishini bilmay, ko‘zlari jovdirab, malla g‘ijim baxmaldek tovlanib yotgan qumlarga qaradi(Said Ahmad). Bu yerda *malla g‘ijim baxmaldek*-o‘xshovchi obraz; *tovlanib yotgan*- o‘xshatma belgi; *qumlar*- o‘xshatiluvchi obyekt bo‘lib kelgan.

b) ikki komponentli o‘xshatish: Xotin eshik yonida devorga suyanganicha turar, ranggi murdaday, o‘zi qaltirar edi (A.Qahhor). Bu misolda xotinning ranggi murdaga o‘xshatilgan. Demak, rang- o‘xshatiluvchi obyekt; murdaday- o‘xshovchi obraz; o‘xshatma belgi esa qo‘llanmagan.

Sifatlash(epitet), grekcha so‘z bo‘lib, “ilova” degan ma’noni bildiradi. Sifatlashning gapdagi asosiy vazifasi predmetga poetik aniqlik, rang-baranglik berishdan iboratdir. Sifatlash predmetning belgisini oddiygina ko‘rsatish bilan chegaralanmaydi, uni yanada konkretlashtiradi, baholaydi va unga emotsional-ekspressiv ottenka kiritadi. Sifatlas, asosan, sifatlovchi-sifatlanmish yoxud sifatlanmish-sifatlovchi birikmasi holida bo‘lishligi bilan aniqllovchiga teng keladi. Shuning uchun ko‘pchilik tadqiqotchilarsifatlashni “badiiy

²¹⁴ Б. В. Томашевский, *Стилистика и стихосложение* Л., 1952, стр. 208-209.

²¹⁵ А.И. Ефимов *Стилистика художественной речи*, М., 1961, стр. 491.

²¹⁶ М.А.Шарипо, *Структура сравнений*, “Ученые записки Тираспольской пед ии-т”, вып. 5, Кишинев, 1958.

²¹⁷ А.Са’diy, *Amaliy ham nazariy adabiyot darslari(o'rta maktablar uchun darslik)*, Toshkent, 1925, 21-22-betlar.

aniqlovchi” deb ham yuritadilar²¹⁸. Sifatlashlar qo‘llanishiga, stilistik funksiyasiga ko‘ra ikki guruhga bo‘linadi: umumnutq sifatlashlari va badiiy sifatlashlar.

a) umumnutq sifatlashlari tilning barcha funksional uslublarida qo‘llanadi. Bularda obyektga nisbatan subyektning munosabati ifodalangan hamda predmetdagi shu kabi belgilarni mavjudligiga kishi ishona oladi, ya’ni aqli bovar qiladi. Umumnutq sifatlashlarda belgi anglatuvchi so‘z ko‘chma ma’noda qo‘llanmaganligi uchun ularda o‘xshatish munosabati bo‘lmaydi: *qora soch, mayin ovoz, qip-qizil yuz, marmar bilak, anor yuz, zebra galstuk* singari.

b) badiiy sifatlashlar individual qo‘llashga xos bo‘lganligi uchun unda obrazlilik, emotsional-ekspressivlik kuchli bo‘ladi. Ular tilning barcha funksional uslublarida teng ishlatilmaydi: asosan, badiiy adabiyot tilida, qisman publitsistik nutqda qo‘llanishi, rasmiy, ilmiy nutqlarda uchramasligi bilan umumnutq sifatlashlardan farqlanadi. Badiiy sifatlash yozuvchi yoki shoirning individual uslubi bilan bog‘liq. Ijodkorlar bunday sifatlashlarni biror narsa va hodisani obrazli gavdalandirish, bir turdagi predmetlarning o‘ziga xos ayrim belgi, xususiyatlarini yorqinlashtirish maqsadida qo‘llaydi. Masalan, quyidagi misollarni olib ko‘raylik: *g‘uncha lab, gul yuz, gulbarg lab, oltin kuz, temir iroda* kabi.

Nutqda sifatlash va o‘xshatish konkretlilik, emotsional-ekspressiv baholash funksiyasida uzviy aloqada bo‘lib, badiiy obrazlikda bir-biriga ko‘chadi va predmetlarni xarakterlashda bir-biriga yordam beradi. O‘xshatishning asosiy badiiylik funksiyasi konkretlilik funksiyasidir. Agar o‘xshatishlarda sifatlash munosabati olib tashlansa, undagi ma’no aniqlik va emotsional-ekspressivlik u qadar aniq bo‘lmaydi. Shuning uchun o‘xshatishlar ko‘pincha, sifatlashlar bilan keladi.

Mubolag‘a narsa va hodisalarni oshirib tasvirlash san’ati. Mubolag‘alar xarakteriga ko‘ra oddiy, ig‘roq(o‘ta mubolag‘a) va g‘ulu(aqlga sig‘maydigan, hayotda uchramaydigan, imkoniyatdan tashqari) bo‘ladi.

Oh ura olamni buzar tovushi,
To‘qson molning terisidan kovushi.
Tikilsam, quriydi daryoning gumi,
Na’ra tortsam, qular qo‘rg‘onning timi. (F.Yo‘ldosh)

Mubolag‘aning ig‘roq va g‘ulu turlari ko‘pincha o‘xshatish ifodalovchi vositalarsiz qo‘llansa-da, mazmunan o‘xshatishni anglab olish mumkin:

Orazin yopg‘ach ko‘zindin sochilur har lahza yosh,
Bo‘ylakim paydo bo‘lur, yulduz nihon bo‘lg‘och quyosh.

Navoiyning qalamiga mansub bu misralarda, *yorning yuzini yopishi-kunning botishiga, sohibjamol visolidan mahrum bo‘lib, to‘kkan ko‘z yosh yoshlarini- quyosh botgandan so‘ng yulduzlar chiqishiga* o‘xshatilgan. Mubolag‘a xalq dostonlari va qo‘shiqlarda ko‘proq uchraydi.

²¹⁸ Т.А.Тимофеева, Метафора как изобразительное средства в научно-популярной литературы, 214-215- бетлар; И.Рибакова, К вопросу о лексико-стилистическом описании эпитета, 1964, вып. 52 ва бошқалар.

Litota narsa va hodisalarni kichraytirib, zaiflashtirib tasvirlash usulidir. Litota san‘ati ham mubolag‘a singari badiiy adabiyotning barcha turlarida biror maqsad uchun ijodkor tomonidan qo‘llaniladi. Masalan: zehni o‘tkir Zuhraning ilmga tezroq to‘lishini ko‘zlab, uning maktabdagi *qilday* yutug‘i oldida uydagi filday gunohini payqamagan edi(A.Qahhor).

Sifatlashlarga tarkibida kelgan *–day* affiksi *litota san‘atini* yuzaga keltirgan. Chunki *yutug‘ning qilday* ekanligiga aql bovar qilmaydi. Bu yerda *mubolag‘a san‘atidan* ham unumli foydalangan: *filday gunoh-gunohning filday* bo‘lishiga kishi ishonmaydi.

Metaforada ikki predmet yoki hodisa ma‘lum bir belgilariga asoslanib bir-biriga qiyoslanadi. Bunda tasvirlangan narsa boshqa narsa bo‘lib, uning o‘rniga o‘xshashlik yoki aloqadorlik asosida biror narsa qo‘llaniladi. Metafora o‘xshatishlardan farqli ravishda faqat o‘xshovchi obrazdan tashkil topadi va o‘xshatma belgi va o‘xshatiluvchi obyektini o‘zida ko‘chma ma’noda anglatadi. Olimlar tomonidan metaforaning shunday xususiyatlari inobatga olinib, har xil nomlangan. Jumladan, Kvintilian metaforani qisqartirilgan o‘xshatishdan farqi o‘xshatishda tasvirlanayotgan predmet nima bilandir chog‘ishtiriladi. Metafora esa predmet nomini o‘ziga oladi desa, Aristotel o‘xshatish bu metaforadir, lekin ular orasida qismangina farq bor degan xulosaga keladi²¹⁹. A.Beliy o‘xshatish belgilarning qiyoslanishi, metafora esa belgilar qiyoslanishining tugallangan formasi deb tushuntiradi.²²⁰

G. L. Abramovich metafora o‘xshatishning yashirin turi desa²²¹, A. T. Rubaylo metafora asosida o‘xshatish yotadi. O‘xshatish metaforaning birinchi formasi bo‘lib, o‘xshatishdan metafora gavdalanadi va ayrim metaforalar osonlikcha o‘xshatishga aylanish mumkin²²² degan fikrni qayd etgan. S. Usmonov o‘zbek tili darsligida shunday ta’rif beradi: “predmetlar, hodisalar orasidagi nisbiy o‘xshashlik asosida ulardan birini ifoda etuvchi so‘zni ikkinchisini ifodalash uchun ishlatish metafora deyiladi”²²³. Sh. Rahmatullayev quyidagicha izohlaydi: “Bir predmetning, belgining, harakatning nomini boshqasiga o‘zaro o‘xshashligi asosida ko‘chirishga metafora deyiladi”²²⁴. Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati asosiy poetik ko‘chim (trop)lardan biri. Ko‘chim ikki xil bo‘ladi: “o‘xshashli ko‘chim — metafora, o‘xshashsiz ko‘chim— metonimiya” deb ta’rif beriladi.

Ko‘rinadiki, metafora adabiyotshunoslik va tilshunoslikka oid tushunchalarga oid tadqiqotlarda “qisqartirilgan o‘xshatish”, “o‘xshatish bu metaforadir”, “belgilar qiyoslanishining tugallangan formasi”, “o‘xshatishning yashirin turi”, “o‘xshatishdan metafora gavdalanadi”, “o‘zaro o‘xshashligi asosida ko‘chirish”, “o‘xshashli ko‘chim” deb atalib, ular asosida o‘xshatish munosabati yotishi inkor etilmaydi. Ammo bundan anglashilgan asosiy fikr

²¹⁹ H.Homidiy, Sh.Abdullayeva, S. ABdurahimova, Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati, Toshkent, 1967, 228-bet

²²⁰ A.Beliy. Simvolizm, M., “Musaget”, 1910, 78-bet.

²²¹ G.L.Abramovich, Vvedenie v literaturovedenie, M., 1953, str.119

²²² A.T.Rubaylo, Xudojestvennoy sredstvo yazika, M., 1961, str.37

²²³ M.Mirzayev, S.Usmonov, I.Rasulov, O‘zbek tili, Toshkent, 1962, 424-bet.

²²⁴ U.Tursunov, J.Muxtorov, Sh.Rahmatullayev, Hozirgi o‘zbek adabiy tili, Toshkent, 1965, 125-bet.

metafora bilan o‘xshatish orasidagi farq ularning komponentlariga bog‘liq ekani va bu komponentlar bog‘lovchi vositalarning bo‘lish yoki bo‘lmasligi to‘g‘risida ekanligini aniqlash mumkin. Masalan, *Karimjon sherday kuchli* desak, uch komponentli to‘liq o‘xshatish, *Karimjon sherday*, deganda ikki komponentli to‘liqsiz o‘xshatish yuzaga keladi. Agar *Karimjon* o‘rnida sherning o‘zini qo‘llasak, metafora yuzaga keladi. Anglashiladiki, metaforada o‘xshatilayotgan obyekt va o‘xshatish belgi hamda o‘xshatish birgalikda qo‘llanmaydi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, metafora doimo bir so‘z bilan ifodalanmasdan, balki birikma holda ham kelishi mumkin. Masalan: *Zangori kema kapitaniqlar oq oltin terimchilar uchun o‘z po‘lat otlarini tayyorlab qo‘ydilar*. Bu gapda zangori kema kapitanlari—mexanizatorlar, oq oltin — paxta, po‘lat ot — mashina. Ko‘rinadiki, har bir metaforaning zaminida o‘xshatish yotadi va abstrakt tafakkur orqali yuzaga keladi.

Ko‘rinadiki, badiiy adabiyot tilining tasviriy vositalaridan biri bo‘lgan o‘xshatishning lingvistik xususiyatlarini o‘rganish-badiiy adabiyot tilining emotsional-ekspressivlik, badiiy obrazlilik, ko‘chim kabi masalalarni aniqlashga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Б. В. Томашевский, *Стилистика и стихосложение* Л., 1952, стр. 208-209.
2. А.И. Ефимов *Стилистика художественной речи*, М., 1961, стр. 491.
3. М.А.Шарипо, *Структура сравнений*, “Ученые записки Тираспольской пед ии-т”, вып. 5, Кишинев, 1958.
4. А.Са’дий, *Амалий ham nazariy adabiyot darslari*(o‘rta maktablar uchun darslik), Toshkent, 1925, 21-22-betlar.
5. Т.А.Тимофеева, *Метафора как изобразительное средства в научно-популярной литературы*, 214-215- бетлар; И.Рибакова, *К вопросу о лексико-стилистическом описании эпитета*, 1964, вып. 52 ва бошқалар.
6. Н.Номидий, Sh.Abdullayeva, S. ABdurahimova, *Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati*, Toshkent, 1967, 228-bet
7. A.Beliy. *Simvolizm*, М., “Musaget”, 1910, 78-bet.
8. G.L.Abramovich, *Vvedenie v literaturovedenie*, М., 1953, str. 119
9. A.T.Rubaylo, *Xudojestvennoy sredstvo yazika*, М., 1961, str. 37
10. M.Mirzayev, S.Usmonov, I.Rasulov, *O‘zbek tili*, Toshkent, 1962, 424-bet.
11. U.Tursunov, J.Muxtorov, Sh.Rahmatullayev, *Hozirgi o‘zbek adabiy tili*, Toshkent, 1965, 125-bet.